

**Mirzaaxmedov X.Z.**  
**mustaqil izlanuvchi.**

Korrupsiya resurslarni umumiy manfaatlardan chetga surib, butun jamiyatga bevosita zarar yetkazadi. Ta'lim tizimi, tibbiyot, turizm, ishlab chiqarish va boshqa muhim sohalarga ajratiladigan kapitalni noto'g'ri yo'llarga yo'naltirib, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga putur yetkazadi. Korrupsiyaning ma'naviy oqibatlarini kengroq aholi farovonligidan ko'ra shaxsiy manfaatlarning ustuvorligidir. Qolaversa, keng tarqalgan korrupsiya jamiyatning axloqiy asoslarini zaiflashtiradi. Korrupsiyaviy amaliyotlar me'yorlashtirilgan yoki toqat qilinsa, axloqiy me'yorlar buziladi va insofsizlik madaniyati va halollik yo'qligi yuzaga kelishi mumkin. Halollik, oshkorlik, yuksak ma'naviyat hislatlari yuksak rivojlangan va korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga qarshi tura oladigan jamiyatni barpo etishda etosferani – axloqiy qadriyatlar qobig'ini rivojlantirish va himoya qilish talab etiladi.

XX asrda keng rivojlangan ta'lim va fandang korrupsiya, ayniqsa, jamiyatning inqirozga yuz tutganligi bilan baholanadi. Fan sohasidagi korrupsiya uning turli tarmoqlarida mutlaqo nekompetent mutaxassislarining jalb qilinishidir. Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bilan bog'liq jarayonda ko'p hollarda proteksionizm va favoritizmning amal qilayotganligi sir emas. Bu esa, bir tomondan, fandan mutlaqo yiroq odamlarning ilmiy darajalarga ega bo'lishi, ikkinchi tomondan esa, ilmiy salohiyatning sayozlashuviga olib kelmoqda.

Ta'lim muassasining ilmiy salohiyatini oshirish vasvasasida umrida bir qator rus tilida gapira olmaydigan odamlarning chet ellarda maqolalar nashr etishi, nepotizm asosida zo'rg'a himoya qilib, ikki haftada qo'liga diplom olib uchinchi haftasida talabgor tadqiqotchilarga ilmiy rahbar etib tayinlanishi, hozirgi davrda yurtimizda ilm-fanni rivojlantirish borasida olib borayotgan siyosatga mutlaqo ziddidir. Biz salohiyatni soxta himoyalar, yoki va soxta olimlarning sonini ko'paytirish yo'li bilan emas, balki tom ma'noda ilmga tashnalar, ilmni qadrlaydigan hisobiga oshirishimiz, yurtimizdagi islohotlarga javob bo'la oladi.

Aytish kerakki, kundalik hayotimizda oq, kulrang va qora korrupsiya ko'rinishlari ham farqlanadi. Oq korrupsiya jamoatchilik tomonidan qoralanmaydigan amaliyotlarni aks ettiradi. Ular amaliy tajribada mustahkam o'rin olgan va muammo sifatida qaralmaydi. (Masalan, biz hurmatimiz, e'tiborimizni bildirish uchun o'qituvchi yoki shifokorga o'z ixtiyorimiz bilan kichik tuhfarlar olib boramiz va uning bu tuhfanini olishi

oq korrupsiyadir, zero bunda ta'magirlik mutlaqo namoyon bo'lmaydi. (Shu bois, Rossiyada mansabdor shaxslarga beriladigan sovg'aga ajratiladigan mablag' miqdori belgilangan). Kulrang korrupsiya deganda, jamoatchilik o'rtasida aniq bir munosabat hali shakllanmagan korrupsion harakatlarni tushunadi (masalan, o'qituvchilarning repetitorligi, ijtimoiy hayotning yozilmagan qonuniga aylangan kulrang korrupsiyadir). Aynan kulrang korrupsiya atrofida janjallar yuzaga keladi. Qora korrupsiya jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan qoralanadi va uning oldini olish hamda bartaraf qilish bo'yicha hukumat qarorlari qabul qilinadi, chunki bu umumiy tanazzulning ifodasidir.

Jinoiy guruh ishtirokchilarining bitimni bir narxda tuzish haqida og'zaki kelishuvi, rasmiy bitimni esa yanada baland narxlarda imzolanishi "kikbeking" deb nomlanadi. Bu ayniqsa AQShda keng tarqalgan korrupsiyaning shakli hisoblanadi. Bunda tafovutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga beriladi, ya'ni yashirin pora berish sodir etiladi.